



BUXORO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot
2023-yil yanvar - iyun*






CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vosisidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovtatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichlari shular jumlasidandir.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **7 388,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022 - yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **103,1%** ga yetdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **597,1** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **125,6 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **6791,4** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **101,5 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **898,2** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **108,9 %**) tashkil etdi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI


Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste‘mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko‘p bo‘lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami mlrd. so‘m	2022- yil yanvar – iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so‘m	2022- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. So‘m	2022- yil yanvar – iyun oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	7 388,5	103,1	597,1	125,6	6 791,4	101,5
Buxoro shahri	2 130,3	105,1	327,6	147,7	1 802,7	99,8
Kogon shahri	293,8	102,4	5,4	124,4	288,5	102,1
<i>tumanlar</i>						
Olot	204,1	101,6	3,7	94,0	200,4	101,7
Buxoro	584,6	103,5	2,4	107,9	582,2	103,4
Vobkent	262,9	102,8	3,4	92,1	259,5	102,9
G‘ijduvon	1 253,8	101,8	39,5	140,4	1 214,2	100,9
Kogon	207,6	102,1	109,6	128,2	98,0	83,1
Qorako‘l	636,7	102,6	5,7	96,0	630,9	102,7
Qorovulbozor	128,5	102,8	0,7	88,8	127,8	102,8
Peshku	319,8	101,8	86,7	82,3	233,2	111,7
Romitan	494,1	102,2	3,5	92,6	490,6	102,2
Jondor	499,8	102,4	5,1	87,4	494,7	102,5
Shofirkon	372,5	101,6	3,8	96,6	368,7	101,6

2023- yilning yanvar-iyun oylarida 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan viloyatning Buxoro shahri (105,1 %), Buxoro (103,5 %) Vobkent (102,8 %) va Qorovulbozor (102,8 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o‘shish sur‘ati qayd etildi.


YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi
(yanvar-iyun, mlrd.so'm)



So'nggi **6 yillikda** chakana savdo Tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'ati 2022-yil yanvar-iyun oyida kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2022- yilning mos davriga nisbatan **112,6%** ni yoki 6 432,2 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati oylar kesimida (foizda) (2022- yil, 2023- yil yanvar –iyun oylari)




2023- yilning yanvar-iyun oylarida o'sish sur'ati 103,1 % ni tashkil qildi.


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **6 791,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022 - yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **1,5 %** ga ko'paydi. . Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **91,9 %** ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atga ega hududlar (foizda)




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022 - yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **25,6 %** ga o'sdi va **597,1** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **8,1 %** ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qorovulbozor (**99,5 %**), Romitan (**99,3 %**) va Buxoro (**99,6 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo Tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **8,1 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Kogon (**52,8 %**), Peshku (**27,1 %**) tumanlari va Buxoro (**15,4 %**) shahrida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
Buxoro viloyati	3 662,9	101,3
Buxoro shahri	7 335,8	103,1
Kogon shahri	4 591,1	100,4
<i>tumanlar</i>		
Olot	1 977,7	100,1
Buxoro	3 331,0	101,8
Vobkent	1 796,0	101,1
G'ijduvon	3 937,7	100,1
Kogon	2 498,1	100,0
Qorako'l	3 745,0	101,3
Qorovulbozor	6 556,7	100,7
Peshku	2 473,5	100,1
Romitan	3 304,9	100,3
Jondor	2 734,1	100,7
Shofirkon	2014,5	100,1


2023 - yilning yanvar-iyun holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **3 662,9** ming. so'mni (2022 - yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **101,3** %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Qorovulbozor tumani (**6 556,7** ming. so'm), Buxoro shahri (**7 335,8** ming. so'm) va Kogon shahri (**4 591,1** ming. so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Buxoro viloyati bo'yicha 2023 - yilning yanvar-iyun oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **898,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **108,9 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12- bozor va 12- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **435,8** mlrd. so'mni (121,2 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **462,4** mlrd so'mni tashkil etdi (99,5 %).

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)



UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – iyun oylariga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	898,2	108,9	435,8	121,2	462,4	99,5
Buxoro shahri	117,9	81,5	104,5	84,5	13,4	63,4
Kogon shahri	21,9	103,8	6,1	47,7	15,8	188,7
<i>tumanlar</i>						
Olot	72,3	131,1	9,0	86,5	63,3	141,4
Buxoro	12,5	58,4	11,9	109,6	0,6	6,0
Vobkent	73,7	117,2	41,9	104,3	31,8	139,9
G'ijduvon	203,8	87,4	134,8	101,8	69	68,4
Kogon	1,9	3,9 m.	1,9	3,9 m.	-	-
Qorako'l	179,6	183,7	89,2	29,8 m.	90,4	95,4
Qorovulbozor	17,7	125,0	3,0	142,6	14,7	121,9
Peshku	50,6	126,3	9,6	3,3 m.	41	110,4
Romitan	48,3	122,4	10,7	152,6	37,6	115,9
Jondor	56,7	155,6	5,6	4,2 m.	51,1	145,6
Shofirkon	41,3	71,6	7,6	60,4	33,7	74,7

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **435,8** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**168,0** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		Mrd. so'm
	Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari	168,0
	Non va non mahsulotlari	47,8
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	35,3
	Tovuq go'shti	23,0
	Qurilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)	19,6
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...)	10,5
	Tuxum	10,3
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak	2,6
	Ziravorlar	6,5
	Tuzlamalar	7,3
	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi)	3,5
Nooziq-ovqat tovarlari		101,4

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023 - yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **462,4** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **408,6** mlrd.so‘m, qo‘y va echkilar **50,6** mlrd. so‘mni, otlar **1,8** mlrd. so‘mni, parrandalar **1,4** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mrld. so‘m
	2 yoshdan katta bo‘lgan qoramollar	222,3
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	82,4
	1 yoshgacaha bo‘lgan yosh mollar	103,9
	Qo‘ylar	33,2
	Otlar	1,8
	Echkilar	17,4
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	0,8
	Tovuqlar	0,4
	Quyionlar	0
	Qushlar	0,2

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023 - yil 1 - iyul holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni **2 094** tani tashkil etib, 2022- yil 1 – iyul holatiga nisbatan **336** taga oshgan va o'sish sur'ati **119,1 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **5** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **2 089** tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar-iyun oylarida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasining ulushi **4,0 %** ni tashkil etib, **298,7** mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **2,7 %** ga ko'paydi. Bunda savdo aylanmasining **89,4 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	298,7	102,7	31,5	99,0	267,2	103,1
Buxoro shahri	159,1	120,0	23,2	99,7	135,9	124,4
Kogon shahri	7,9	101,7	-	-	7,9	101,7
<i>Tumanlar</i>						
Olot	5,6	112,0	-	-	5,6	112,0
Buxoro	19,0	129,8	-	-	19,0	129,8
Vobkent	17,8	86,8	-	-	17,8	86,8
G'ijduvon	22,5	94,2	-	-	22,5	94,2
Kogon	8,1	101,7	-	-	8,1	101,7
Qorako'l	9,4	72,9	-	-	9,4	72,9
Qorovulbozor	3,7	57,1	-	-	3,7	79,7
Peshku	5,2	60,5	-	-	5,2	60,5
Romitan	28,9	79,9	8,3	123,9	20,6	70,0
Jondor	5,5	59,1	-	-	5,5	59,1
Shofirkon	6,0	113,7	-	-	6,0	113,7

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- iyul holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) hajmi **1 711,5** mlrd. so'm bo'lib, bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan **117,1 %** ni tashkil etdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **1 211,8** mlrd. so'm (o'sish sur'ati **125,5 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi **499,7** mlrd. so'mni tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi




Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Buxoro viloyati	1 711,5	117,1
Buxoro shahri	1 028,9	124,8
Kogon shahri	5,1	100,1
<i>tumanlar</i>		
Olot	6,4	29,7
Buxoro	8,6	100,1
Vobkent	264,6	118,4
G'ijduvon	318,4	125,4
Kogon	4,7	100,1
Qorako'l	11,8	70,1
Qorovulbozor	4,3	45,3
Peshku	15,8	80,7
Romitan	11,5	52,2
Jondor	12,4	58,4
Shofirkon	19	61,6


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Buxoro shahri (**1 028,9** mlrd. so'm), Vobkent (**264,6** mlrd. so'm) va G'ijduvon (**318,4** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar – iyun oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **6 160,6** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **6,0** % ga kamaydi.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **4 559,3** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **115,0** %ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **74,0** % ni tashkil qildi.


ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga eng yirik korxonalar Olot (**42,8 m.**), Kogon (**2,7 m.**) va Qorovulbozor (**4,6 m.**) tumanlarida kuzatildi.

2023- yil 1- iyul holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **2 488** tani tashkil etib, 2022- yil 1- iyun holatiga nisbatan **734** taga ko'paygan, o'sish sur'ati **141,8 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **24** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **2 464** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar – iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	6 160,6	94,0	1 601,3	61,9	4 559,3	115,0
Buxoro shahri	2 181,2	114,2	178,7	158,6	2 002,5	111,4
Kogon shahri	178,9	113,0	83,8	94,3	95,1	136,8
<i>tumanlar</i>						
Olot	210,5	14,0 m.	0,3	42,8 m.	210,2	14,0 m.
Buxoro	207,4	110,9	-	-	207,4	110,9
Vobkent	690,5	60,6	667,4	59,7	23,1	107,6
G'ijduvon	564	74,8	178,8	67,7	385,2	78,7
Kogon	299	108,2	171,8	2,7 m.	127,2	59,7
Qorako'l	81,4	88,0	10,0	22,2	71,4	150,7
Qorovulbozor	49,6	129,7	0,2	4,6 m.	49,4	129,3
Peshku	844,7	176,7	309,6	101,6	535,1	3,1 m.
Romitan	209,1	45,7	0,7	0,3	208,4	107,0
Jondor	577,5	78,7	-	-	577,5	118,4
Shofirkon	66,8	21,4	-	-	66,8	29,0



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Тел. 65-223-75-63**